

XORAZM MUSIQASINING NOYOB OHANGLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.025>

Xurshidjon Xoliqnazarov
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Xorazm musiqasi O‘zbekiston xalqining qadimiy va boy madaniy me’rosini ifodalaydi. U xalq qo‘shiqlari, bayram hamda marosimlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, suvoralar, maqomlar va cholg‘ular orqali ijrochilik mahoratini namoyon etadi. Suvoralar va maqomlar xalqning hissiy, ma’naviy va tarixiy qadriyatlarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, Xorazm musiqasida ishlatiladigan cholg‘ular - bulamon, dutor, g‘ijjak va surnay - musiqaning ohangini boyitadi va ritmini jonli qiladi. Bu musiqiy meros nafaqat estetik zavq beradi, balki milliy ruhiyatni uyg‘otadi va yosh avlodni madaniy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Kalit so‘zlar: Xorazm musiqasi, suvoralar, maqom, cholg‘u, ashula, tasavvuf, xalq merosi, ijrochilik an‘analari

UNIQUE MELODY OF KHOREZM MUSIC

Khurshidjon Kholiknazarov
Kokand State University

Abstract: Khorezm music represents the ancient and rich cultural heritage of the people of Uzbekistan. It is closely related to folk songs, holidays and ceremonies, and demonstrates the skill of performance through folk songs, maqoms and musical instruments. Folk songs and maqoms serve as a means of expressing the emotional, spiritual and historical values of the people. At the same time, the musical instruments used in Khorezm music - bulamon, dutar, gijjak and surnay - enrich the melody of the music and make its rhythm lively. This musical heritage not only gives aesthetic pleasure, but also awakens the national spirit and introduces the younger generation to cultural values.

Keywords: Khorezm music, folk songs, maqom, musical instrument, song, mysticism, folk heritage, performing traditions

O‘tmishdan muayyan voha, o‘lkada yashovchi millat, elatlarni o‘ziga xos turmush tarzi bilan uyg‘un holda musiqa madaniyati ham shakllangan va qaror topgan. Bu o‘rinda mahalliy xalqning ijtimoiy- madaniy hayotida muhim o‘rin tutuvchi kasb- korlik, marosimlar, bayrmlar, urf-odat, an‘analar va ularni o‘ziga xos xususiyatlari

alohida ahamiyat kasb etgan. Bular o'z o'rnida o'sha hudud, vohada yashovchi xalqning adabiyoti, san'atida o'zini muayyan ifodasini topib, shakllanib kelgan. Ularning muhim belgilari va xususiyatlari barqarorligi va davomiyligi, ommaviyligi, rivojlanishidagi takroriyligi hamda uzliksizligidir.

Xorazm musiqa uslubi O'zbekistonning eng qadimiy va boy musiqiy an'analaridan biri hisoblanadi. Xorazm musiqa uslubi-mazkur vohadagi xalq qo'shiq hamda laparlari, turli marosim, tomosha va o'yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san'ati kabi kasbiy musiqa an'analaridan tashkil topgan. Unda xalq hayoti, mehnat, muhabbat, tabiat va tarixiy voqealar kuylanadi. Xorazm musiqasining asosiy xususiyati - undagi jo'shqinlik, ritmik harakat va ashulalarning keng diapazonli ijrosi hisoblanadi. O'zbek musiqasining tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm musiqasi, ayni vaqtda, o'zgacha tarovatga ega bo'lib, uning ma'lum darajada turkman va ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bordir. Xorazm musiqa uslubining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon damli puflama cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas. Bulamon tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambl tarkibida ijro etish mumkin. Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asr oxiridan boshlab esa, "garmon" cholg'usi ham qo'llanila boshlangan. Uni "soz" deb atashadi. Bulardan tashqari, Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari (dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar) qo'llangani holda do'mbira sozi kam uchraydi.

Qadimdan madaniyat va san'at maskani bo'lgan ushbu hududda o'ziga xos xalq musiqa ijodiyoti (bolalar va marosim qo'shiqlari, xalfa laparlari va boshqalar), og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa (doston, talqinchi va go'yandalar san'ati, maqom va boshqalar) namunalari juda keng o'rin tutadi. Xorazm musiqa uslubi doirasida xalq musiqasining eng qadimgi davrlariga mansub kuy ohang namunalari o'z aksini topgan. Jumladan, bolalar ("Momom moshiydi", "Aravachi mani doyim", "Tuyalar, ho tuyalar" va boshqalar) va mavsum hamda marosim qo'shiqlari ("Suyet xotin", "Ashsha daroz" va boshqalar)da musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlarini, boshlang'ich parada asoslari saqlanib qolgan. Xalfalar san'atida "ichkari"ga xos ixcham diapazondagi past ovoz ko'lamida aytiladigan, faqat ayollargagina xos bo'lgan qo'shiq va ashulalar o'rin olgan. Bunda qudalar tomonidan to'yga ruxsat berilgandan keyin aytiladigan "Boring boshlang, o'nnglar bo'lg'ay tuyinggiz", tuy boshlanishida "Muboraklar bo'lg'ay etgan tuyinggiz" yoki kelin kelgandan keyin "Aylanaman kelinni qaddi bo'yinnan" va boshqa qo'shiqlar to'yning o'ziga xos rivojini belgilab bergan. Ayniqsa, qayroq bilan o'ynab aytiladigan lapar turi xalfa raqqosalariga juda xos hisoblanadi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs va o'yin kuylarini bir necha turlarga bo'lish mumkin:

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asoslarini "Lazgi", "Ganji Qorabog", "Ufori" kabi kuylar tashkil etadi.
2. Dorbozlarning o'yin-kuylari. Ularni "Yelpazalandi", "Ufori Yelpazalandi" kabi kuylar tashkil etadi.
3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin-kuylari. Ushbu kuylarni "Chog'olloq", "Az-az", "Az-azning tezi", "Xorazmcha", "Yuz bir", "Ot eroni", "Surnay yo'li" kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs hamda o'yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. O'tmishda esa Xiva xonligida o'tkazilgan Xalq sayli kunlari "Xatarli o'yin" nomli turkum mazmunida ham namoyish etilgan. "Xatarli o'yin"da parrandalar va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (masalan, "Ot o'yin", "Tustovuq o'yin", "Kaptar" va b.) hamda "Olma terish", "Kampir", "Ko'knori" kabi maishiy sahnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruxlari "Sozanda qo'shlari" ham deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchi ashulachi, sozchi (garmonchi) ashulachi, raqqos, masxaraboz, so'z ustasi; dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'yda baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (Lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat bo'lgan. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Kupal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqa mashhur ijrochilar xalq orasida mashxur bo'lgan.

Xorazmda baxshilik va dostonchilik san'ati o'ziga xos bo'lib, alohida o'ringa egadir. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo'shiq shaklida ochiq ovozda cholg'u ansambl jo'rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi Shirvoniylar va Eroniy uslublarga bo'linadi. Shirvoniylar uslub Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi hududda tarqalgan (markazi- Xiva). Bu uslub namoyandalari dutor, g'ijjak, bo'lamon va doyra jo'rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo'lib, bular: Muxammaslar turkumi (5 ta kuy), Ilg'orlar (4), Eshvoylar (5), Naylarmanlar (5), Nolishlar (7), Shirvoniylar (3), Zorinjilar (2), "Rahm ayla", "Boboxonim", "Gulandom" va boshqalar.

Eroniy uslub Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan (markazi - Mang'it sh.). Ushbu uslub baxshilari dutor, g'ijjak, bo'lamon jo'rligida doston kuylashadi. Ularning qo'shida doira qatnashmaydi. Eroniy uslubda 32 ta doston kuylari bo'lgan.

Ularning ko'pchiligi Shirvoniy nomalar bilan o'xshash, ammo Sarparda, Ko'r qiz, Qo'shadas, Qo'shim Polvon Ilg'ori va boshqalar bilan ajralib turadi. XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko'rsatgan va ulardan eng mashhurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz Go'rji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyov baxshi, Jumanazar baxshi, Axmad baxshi, Bola baxshi Abdullayev va boshqa Xorazm musiqa uslubida talqinchi va go'yandalar ijodi aniq bir janr bilan chegaralanmagan bo'lsada, ularning o'z yo'llari va o'ziga xos uslublari mavjud. Ayniqsa, ular suvoralar va ularning savtlari hamda boshqa yirik shakldagi mumtoz ashulalarni Mashrab, So'fi Olloyor, Mahtumquli, Mulla Nafas kabi shoirlarning tasavvuf yo'lidagi g'azallari, nasihat va o'gitlariga solib kuylaganlar. Shuningdek, musulmonchilikni targ'ib qiluvchi "Kiyiknoma", "Sayid Vaqqos", "Kaptar", "Amir Hamza", "Me'rojnoma", "Sultonbobo hikoyati", "Payg'ambarlar hikoyati" kabi nomlarni ham ijod qilganlar. Talqinchi va go'yandalar "Diydalishma" deb nomlangan erkin tanlovlarda sinalgan, ulardan Polli Duzchi, Kalandar Banggi, Qurji ota va boshqalar.

Xorazm maqomlari yaratilish tarixiga bir nazar tashlasak:

Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari asosan Olti maqomdan iborat:

1. «Rost» maqomi (yoki Maqomi Rost)
2. «Buzruk» maqomi (Maqomi Buzruk)
3. «Navo» maqomi (MaqomiNavo)
4. «Dugoh» maqomi (Maqomi Dugoh)
5. «Segoh» maqomi (Maqomi Segoh)
6. «Iroq» maqomi (Maqomi Iroq)

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xorazm maqomlarining uzil-kesil qaror topishida Buxoro maqomchilik an'analari katta ta'sir ko'rsatgandir. Bu o'rinda atoqli musiqachi Niyozjon Xo'janing xizmatlari alohida ko'rsatib o'tiladi. Shunga ko'ra, Niyozjon Xo'ja XIX asr boshlarida Buxoroga kelganligi hamda Shashmaqomni maxsus o'rganib, so'ngra bu san'atni Xorazmda tarqatganligi aytiladi. Ayni vaqtda maqomlar Xorazm sharoitiga moslanib, mahalliy badiiy an'alar bilan bog'liq jihatlarga ega bo'lganligi ham ta'kidlanadi. Biroq bu kabi ma'lumotlar Buxoro Shashmaqomi Xorazmga to'g'ridan to'g'ri ko'chirilganligini anglatmaydi, balki Xorazmda qadimdan mavjud maqomchilik an'analari namunalarini yaxlit bir tizimga tushirishda Shashmaqom turkumi andoza sifatida olinganligiga ishora etadi. XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Pahlavon Niyoz Muhammad (taxallusi Komil Xorazmiy, 1825-1897) o'zi kashf etgan «Tanbur chizig'i» nomli o'ziga xos «nota yozuvi» vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni uning o'g'li - Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan. O'ng

tomondan chapga qarab o'qilgan mazkur «nota yozuvi»da tanbur pardalariga oid 18 ta muvoziy chiziqlar bo'lgan va bunda sadolanishi (bosilishi) lozim bo'lgan pardalar nuqtalar vositasida belgilangan. Xorazm maqomlari tuzilishi jihatidan Buxoro maqomiga aksariyat o'xshash hamda o'zgacha holatlarni namoyon etadi. Xususan, bu maqomlarning cholg'u-kuy yo'llaridan tashkil topgan bo'limi Shashmaqomdagi kabi «Mushkilot» deb emas, balki «chertim yo'li» (yoki «Mansur») kabi umumiy nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, cholg'u bo'limi - chertim yo'li tarkibida bizga Olti maqomdan ma'lum bo'lgan «Tarje», «Gardun», «Muxammas» va «Saql» nomli kuylar bo'lgani holda, biroq «Tasnif» atamasi uchramaydi va uning o'rnida har bir maqomning nomi (masalan, «Maqomi Rost», «Maqomi Buzruk» va h.k.) yoki «Tani maqom» iborasi qo'llaniladi. Doira usullarining ketma-ketligida Shashmaqomda namoyon bo'lgan "oddiydan murakkabga" tamoyili Xorazm maqomlari chertim yo'lida o'zgacha ko'rinish kasb etadi. Masalan, Tani maqom (boshlang'ich)da qo'llangan zarb - usuli oddiy bo'lib, uni maqomdon ustozlar "gup, taq" (yoki "gup, ist, taq, ist") tarzida ifoda etadilar. Chertim yo'lining keyingi qismlarida shu asosda tobora murakkab ko'rinishli usullar («Tarje», «Muxammas», «Saql» va b.) unib o'sadi. Shu jumladan, o'rta bo'g'inda «Peshrav» nomli qismlarning muqim tus olgani va bu qismlarda «Zarb ul-fath» nomli usulning kelishi ham o'zgacha holatdir. Bundan tashqari, Shashmaqom cholg'u bo'limlari «Saql» nomli kuylar bilan yakunlangani holda, Xorazm maqomlarining chertim yo'llari «Ufar» nomli kuylar bilan poyoniga yetadi. Bu kabi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni yaxshi tasavvur etish maqsadida Shashmaqom va Xorazm maqomlarining «Rost» turkumidagi cholg'u kuylarni bir-biriga qiyoslab ko'rish mumkin.

Xorazm «Rost» maqomi Buxoro «Rost» maqomi Chertim yo'li: Mushkilot bo'limi:

1. Maqomi Rost. 1. Tasnifi Rost.
2. Tarjei Rost. 2. Garduni Rost.
3. Peshravi Gardun. 3. Muxammasi Rost.
4. Muxammas I. 4. Muxammasi Ushshoq.
5. Muxammas II. 5. Muxammasi Panjgoh.
6. Muxammasi Ushshoq. 6. Saqli Vazmin.
7. Saqli Vazmin. 7. Saqli Rak-rak.

8. Ufar. Chertim yo'li kuylarining ichki shakl-tuzilishlarida Shashmaqomning «Mushkilot» kuylaridan ma'lum bo'lgan «xona-bozgo'y» nisbatlari namoyon bo'ladi. Xorazm maqomlarining cholg'u kuylari ijro etilganda tanbur va doira sozlari muhim o'rin tutadi. Tanburda maqomning kuyi, doirada esa usul yo'li chertiladi. Shuningdek, chertim yo'llarida ikki tanbur, bir g'ijjak, bir bulamon va doira cholg'ularidan iborat an'anaviy dasta ham namoyon bo'ladi. Xorazm maqomlarining ashula bo'limi «aytim yo'li» (yoki «Manzum») deb ataladi va uning tarkibidagi «Tani Maqom», «Talqin»,

«Nasr», «Suvora», «Naqsh» va «Faryod» kabi qismlar Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar kabi donishmand shoirlarning aruz vaznli nazmiy ijodlari asosida «o'qiladi». Aytim yo'lining ilk qismlarida «Saraxbor» atamasi umuman uchramaydi, balki bu o'rinda (chertim yo'lida bo'lgani singari), maqomning nomi («Maqomi Rost», «Maqomi Buzruk» kabi) yoki «Tani Maqom» iborasi ishlatiladi. Mazkur qismlarda qo'llangan doira usuli esa, chertim yo'li boshlang'ichida kelgan «gup, ist, tak, ist» kabi ko'rinishda hozir bo'ladi. Manzumlarning o'rta bo'g'inlaridan o'rin olgan Talqin va Nasrlar Shashmaqomda shu nomlarda kelgan sho'balar kabi mukammal ishlangan aytim yo'llaridir. Ularda qo'llangan doira usullari bir oz o'zgacha bo'lsa-da, Shashmaqomdagi ko'rinishlariga asosan mos keladi. Xorazm maqomlarining aytim yo'llarida Taronalar ham qo'llanilib, bu o'rinda, ko'pincha «Suvora», «Naqsh», «Faryod» nomli ashulalar ishlatiladi. Biroq, Shashmaqomdagi Taronalardan farqli o'laroq, mazkur ashulalar anchayin rivojlanganligi, avj tuzilmalari qo'shib ishlanganligi bilan ajralib turadi. Aytim yo'llari «Ufar» nomli qismlar bilan yakunlanadi.

Suvora ashula yo'llarining kelib chiqish tarixi:

O'zbek mumtoz musiqasi jumladan, Xorazm va maqom ashulalari har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirish, insonga estetik zavq berish bilan birga intellektual salohiyatini rivojlantirish, uni estetik jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sa'atda o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismi sifatida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Suvora so'zining kelib chiqishi va uning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qiladigan bo'lsak, musiqashunoslik ilmida unga shunday ta'rif beriladi. Suvor fors tojik tilida "minmoq", "ot yoki boshqa jonivorni minmoq" degan ma'noni anglatadi. Suvora (forscha "suvoriy" - otliq) - Xorazm mumtoz xonandalik maktabida kengtarqalgan yirik ashula yo'li.

Suvora o'tmishda tasavvuf oqimining musiqa san'atidagi ko'rinishidir. Suvoralar, qadimda diniy so'zlar bilan aytilib, ijrochilarni "go'yanda" (aytimchi) deganlar. Suvora so'zi "suvoriy" so'zidan chiqqanligi bejiz emas, chunki ustozlarning aytishicha Suvoralarning ritm, doira usullari otning oyoq tovushi holatidan olingan deyishadi. Shuning uchun ham musiqa ijodiyotida ot bilan bog'liq asarlar juda ko'p uchraydi. Ot mingan otliqni musiqaga nima aloqasi bor deyish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha islom dini paydo bo'lgan uni mahalliy aholi orasida va boshqa hududlarda tez sur'atda yoyish, tarqatish muhim ijtimoiy va axloqiy masalalardan hisoblangan. Bog'dod xalifasi Qutayba lashkarboshi boshchiligida Xorazmga ikki marta Lashkar yuboradi. Xorazm va butun O'rta Osiyo arab istilochilari tomonidan bosib olingach, Qutayba Xorazmga so'nggi marta kelganida obodonlashtirish ishlariga, xususan mahobatli, mustahkam, chiroyli masjidlar barpo etishga farmon beradi. Maorif va madaniyat sohalariga e'tibor kuchayadi. Mahalliy xalqlarga islom g'oyalarini

singdirish, islomiy g'oyaviy safdin ekanligini tushuntirish uchun din ahllaridan, kitobxon mudarisaar, kissaxon-roviylardan tartibot maqsadida foydalaniladi.

Bog'dod xalifasi Qur'oni Karimning oyatlarini tafsirlari bilan idrok qilgan yoqimli ovoz egalari, qiroati shirali va tushunarli, talaffuzi yaxshi, nutqi ravon hamda o'zi salobatli ham sadoqatli mullolarni tanlab, ularni arabiy otlarga mindirib, qishloqlar, shaharlar, ovullarga xalq orasiga yuboradi. Yoqimli ovoz va chiroy qiroat qilishga mansub odamlar qishloq shaharlarga borib, ulug' allomayu shoirlar bitganrivoyatlarni baland, chiroyli ovoz bilan aytib, ularning she'riy dav'atlari, rivoyatlarini eshitgan xalq chiroyli ovoz va rivoyatlarda ifoda etilgan ibratomus qissalarga mahliyo bo'lishadi. Keyinchalik odamlar orasida chiqqan iste'dodli yoshlar bu aytimlarni o'zlaricha xirgoyi qilib aytib yuritiladi. Gap-u gashtak, turli yig'inlar, marakalarda, kichik davralarda yig'ilgan muxlislar otliqlar kuylagan aytimlarni aytib berishni iltimos qilib so'rashgan. Shunday qilib katta hajmdagi aytim yo'llari ko'chma ma'noda otliq kishining nomiga qolib "Suvora" deb atala boshlagan. Suvora yo'llari qalandarlar, katta ashula aytuvchilarning xonishlariga o'xshab, dastavval usulsiz ijro etilgan. Keyinchalik iqtidorli, bilimli insonlar Suvoralarni ma'lum tartib, izchillik asosida umumlashtirib, parda, shakl va usullarini joy-joyiga qo'yishgan. "Suvora" bu oddiy xalq tilidagi nomdir. Aslida esa asosan hamd, durud, na't, munojot toifasidagi aytimlardan tarkib topgan san'at turidir. Mutaaffakir, shoir, olimlarning naql qilishlariga Suvora hadisi sharif ma'nolari bilan to'lib-toshgan "Hikmatli" so'zlar bilan aytilgan. Hofizu-go'yandalar avvalo, bu ilohiy so'zlarning ma'nosini tinglovchilarga tushuntirib berganlar. Baytlar ma'nolari, mazmuni ustida bahslar, suhbatlar qurganlar.

Xorazm Suvora ashula turkumlarining barchasi "Ona Suvora" ning ayrim shaxobchalaridan olinib, muayyan tugallangan musiqiy asar qilib yaratilgan. Jumladan, "yakparda Suvora" Ona Suvoraning "namud" (avj) qismida bo'lib, bir pardada turib boshlanganligi - uchun "yakparda" deb aytilgan. "Kajang Suvora" (Kajohang) "Ona Suvora" ning "dastgiri fano" qismidan boshlangan bu aytimning avj qismi juda baland bo'lib, ovoz to'liqlatirib baland pardada qochirim qilingani uchun Kaj-teskari ya'ni kuylash qiyin bo'lgan avj deb atalgan.

"Xushparda Suvora" "Ona Suvora"ning uchinchi bosqich yarim avj qismidan olingan va kuyni to'liq, mukammal qilib oxiriga yetkazganlar. Qolgan Suvoralar ham "Ona Suvora" ning shaxobchalar yoki irmoqlari hisoblanadi.

Suvoralardan keyin "Savt"lar keladi. Forschada Savt so'zining "Qamchi" degan ma'nosi bor. Ya'ni ular tezroq sur'atda aytilishi lozim. Ular Suvoralardan muayyan usulda ijro qilinadi. Lekin savtlarning kuy hamda so'zlari boshqa Savtlar tezroq ritm(usul)da ijro etiladi. Suvoralar to'g'risida fikr yuritilgan manbalar ko'p. shulardan birida shunday fikrlarni o'qiymiz va bular ham bejiz aytilmagandek, jo'yali ilmiy asosga egadek.

Xorazm suvoralarning janr, uslub va ijrochilik an'analari

Suvoralar, maqomlar va boshqa musiqiy janrlardan farqli o'laroq qalandarxonalar, xonaqohlarda va tasavvuf yo'lidagi kishilar davralarida kuylangan. Ustozlarimiz Suvoralarning ritm, doira usullari o'tning oyoq tovushi holatidan olingan deyishardi. Qadimgi Xorazmda o'tchilik juda rivojlangan. Xorazm otlari dunyoning mashhur zotdor otlari qatorida sanalgan. Xorazmda Xazorasp degan yurtning borligi, uning qadimgi turkiy qabilalardan Xazar va Os urug'lari birlashuvidan tashkil topganligi va ular otliq jangchi urug'lar ekanligi to'g'risida rivoyatlar bor. Shuningdek, "Hazorasp" so'zi forsiyda "ming otliq" degan ma'noni bildiradi. "Suvora" so'zi ham aynan "Suvoriy" so'zidan kelib chiqqanligi bejiz emas. Olloh insonga o'tni yordamchi qilib, do'st qilib yuborganligi ulug' bir ne'matdir. Shuning uchun ham musiqa san'atida ot bilan bog'liq asarlar juda ko'p uchraydi. Suvoralarning bizgacha beshta asosiy yo'li va yigirmaga yaqin Savji Suvora va Ufori Suvoralari yetib kelgan. Bundan tashqari, Suvora atamaları maqomlarimizda ham uchraydi.

Asosiy Suvoralarning hozirgi kundagi ko'rinishi quyidagilar:

1. Ona Suvora (katta Suvora, toj Suvora ham deyiladi).
2. Chapandozi Suvora (bu Suvora nomlanishi "chavandoz" degan so'zdan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas).
3. Yak parda Suvora (ya'ni bir parda qochirimi bor degan ma'noda)
4. Qo'sh parda Suvora, bu Suvorani "Xush parda Suvora" deb ham yuritiladi. Agar bu Suvora qo'sh parda Suvora bo'lsa, uning ikkita pardasi, ya'ni, ikkita qochirimi bor. Agar bu Suvora xush parda Suvora deb yuritilsa, uning xush parda so'ziga loyiq, yoqimli pardalari bor.
5. Kajhang Suvora. Bu Suvoraning nomidan ma'lumki, bu Suvora hamma hofizlar ham uddalay olmaydigan, bir qaysar avji, ya'ni ohangi bor. Ustozlar fikricha bu Suvora Bekchon bola degan bir go'yanda tomonidan yaratilgan. Yana bir joyda aytilishicha, bu Suvora Xorazmning bir mohir dutorchi va go'yanda Bobojon bola tomonidan yaratilgan.
6. Suvorai Komil. Bu Suvora "Oltinchi Suvora" deb nomlangan. Uni ustoz Komiljon Otaniyozov yaratgani uchun "Suvorai Komil" deyishadi.
7. Qorchmoniy Suvora. Hojixon Boltayev ijodiga taaluqli asar bo'lib, ustoz tavallud topgan Xonqadagi Qorchmon qishlog'I nomi bilan ataladi.
8. Indamas Suvora. Ustoz Quvondiq Iskandarov ijodiga mansub bo'lib, g'azal nomi bilan yuritiladi.
9. Go'jayi Suvora. Xonanda va sozanda Ozod (Ikrom) Ibraximov tomonidan yaratilgan va ijodkor tug'ilgan qishloq nomi bilan ataladi.
10. Nim parda Suvora. Mazkur Suvorani Rahmatjon Qurbonov ijod mevasi sifatida bilmoq joiz. "Nim parda Suvora" deb nomlanishiga sabab, yuqorida sanab o'tilgan Suvoralarning ko'pchiligi musiqaning major tonalligiga mansub. Nim parda

Suvora esa minor tonalligida yaratilgan bo‘lib, kichik, ya’ni, yarim parda qochirimi bor, degan ma’noni beradi.

Soz san’atining Suvora janri tasavvuf, ya’ni so‘fiylik oqimining musiqa san’atidagi bir ko‘rinishi sifatida ham talqin qilishadi. Suvoralar qadimda diniy so‘zlar bilan aytilib, Suvora aytadiganlarni “go‘yanda” deb atashgan. Go‘yanda so‘zining ma’nosi “aytuvchi” demakdir. Oldingi o‘rinlarda aytilganidek, Suvoralarda faqat Olloh madh etilgan va ulug‘langan. Tasavvuf yo‘lida musiqiy san’atni namoyon etuvchilarga darveshlar, qalandarlar, xalfalar, qissaxonlar, xudo yo‘lida nola qilib, bor ovozi bilan, usulsiz ohanglarda katta ashula aytuvchilar kiradi.

Musiqa san’atining sehrli kuchi shundaki, ohanglar yurakka kirib boradi, ohangni emotsional ta’sirini so‘z bilan ifodalash qiyin. Suvoralar ohangi ham, ayniqsa avjlaridagi ohanglarning ta’sir kuchi, hatto ba’zi vaqtlarda, shu ohang bilan aytiladigan so‘zlardan ham kuchliroq ta’sir etadi. Bu ohanglar Suvoralarni tushunib ijro etuvchilar va ularni tinglab bilguvchilarning ko‘ziga yosh keltirmay qo‘ymaydi.

Xorazmda san’atga qadam qo‘ygan hofiz (xonanda)lar Suvora kuylamasdan iloji yo‘q. Chunki “Suvora” ijrosi xonandaning ovozi sozi, so‘zi va iqtidori-yu bilimini san’at tarozisiga tortadigan me’zon hisoblanib kelgan. Ana shunday chinakam sinovlardan o‘tgan xonandagina yetuk hofiz sifatida tan olingan. O‘tgan asrning 20-yillariga ham Suvora aytishuv (diyrallishma) lari juda rivoj topib kelgan. Bunday aytishuvlardan darak topgan xalq shu kuni sayl qilgan. Aytishuvlar odatda yakka dutor jo‘rligida aytishuv tarzida o‘tgan. Polli do‘zchi Hojixon bilan, hojixon bilan qalandar ota, Sheroziy (Madraxim Yoqubov) esa Muhammad Bog‘ibekov va Hojixonlar bilan aytishib (diydalashib) muxlislarga benazr zavq ulashgan. Bu aytishuvlar do‘stona va samimiy ruhda o‘tgan. Bir-biriga raqobat emas, bir-biridan ilhom olish, o‘zlarining san’atini, iqtidorini ko‘rsatib, yonidagi hofiz ijodidan baxramand bo‘lish, undan nimalarnidir ilg‘ab olish va o‘rganish tarzida kechgan.

Xorazm musiqa san’atining ulug‘darg‘alari Polli do‘zchi, Qurbonnazar Abdullayev, Xojixon Boltayev, Bola Baxshi, Madrahim Sheroziy, Komiljon Otaniyozov, Xudoybergan Qurbonov, Matniyoz Yusupov, Bobomurod Hamdamov, Otajon Xudoyshukurov, Ortiq Otajonov, Rahmatjon Qurbonov, Quvondiq Iskandarovlar Suvora ashulalarini mohir ijrochi bilimdonlari bo‘lishgan. Mumtoz asarlar bilan ishlash (o‘rganish, kuylash)da dastlab talabalarni milliy mumtoz asarlar (Suvoralar) kuylashda muhim bo‘lgan xonandalik ovozi turlari va kuylash texnikasi bilan tanishtirish lozim bo‘ladi. Xonandalikda ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko‘lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo‘lishi hisobga olinishi shart. Burungi davr ayrim savodxon musiqachilar tomonidan ovozlarni ta’riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jihatdan baholash uchun qator maxsus atama va iboralardan foydalanilgan. Demak, talaygina aniq tushunchalar og‘zaki bo‘lsa-da, muttasil ilmiy-amaliy muomalada bo‘lgan.

Xorazm suvorachilik maktabining yetuk vakillari

O'zbek xalq hofizi, O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov - Xorazm mumtoz vokal maktabining klassik vakillaridan. U suvora janrini keng targ'ib qilgan, ko'plab xalq qo'shiq va kuylarini repertuariga kiritgan mashhur xonandalardan biri hisoblanadi. "Savti Suvora", "Tanovar", "Munojot", "Katta suvora" kabi asarlarni mahorat bilan ijro etgan. Xorazm ashula maktabining asoschilaridan biri sifatida tan olingan. Uning xotirasiga bag'ishlab tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda.

Xorazmda tug'ilgan Komiljon Otaniyozov an'alarini davom ettirgan xonanda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Otajon Xudoyshekurov ovoziining jozibasi va uslubiy an'analarga sodiqligi bilan Xorazm suvorachilik maktabining yetuk vakili sifatida nom qozongan. Talabalarga va yosh xonandalarga suvora ashula yo'llarini o'rgatgan. Otajon Xudoyshekurov - Xorazm suvora ijrochisi sifatida juda mashhur bo'lgan, turli suvora turkumlari (masalan, "Savti suvora", "Katta suvora" "Chapandozi Xorazm", "Dilxiroj") bilan tanilgan ijrochi.

Hojixon Boltaev Xorazm viloyatining Urganch tumanida tug'ilgan. Hojixon Boltaev ustoz sifatida ham ko'plab shogirdlar yetishtirgan. "Katta suvora", "Savti Suvora", "Chapandoz" kabi yo'llarni o'ziga xos talqinda ijro etgan. Uning ijrolarida Xorazmning ohangdorligi, dramatik ifodasi va boy bezakli ovoz uslubi yaqqol sezilad.

Rahmatjon Qurbonov Xiva shahrida san'atkor oilasida tug'ilgan. U mumtoz qo'shiqchilik, xususan, maqom va suvora uslubida faol bo'lgan. Rahmatjon Qurbonov ijodini shu uslubda kengaytirib, xususan "Suvora" repertuarida alohida o'rin egallagan san'atkorlardan biri bo'lgan. Masalan, "Chorgoh", "Talqini Rost", "Katta Suvora", "Chapandozi Suvora", "Bozirgoniy", "Qaro Ko'zim", "Nasrulloiy", "Maxsus", "Feruz-I", "Feruz-II", "Orazibon" kabilarni yuqori mahorat bilan ijro qilgan. U shuningdek xorijda ham san'at safarlarida bo'lgan (masalan, Turkiya, Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda) va xalqaro miqyosda o'zbek mumtoz san'atini targ'ib qilgan.

Madraim Sherozi, Quvondiq Iskandarov va boshqa mumtoz ijrochilar - suvora shakllarini o'z repertuariga olgan taniqli xonanda va bastakorlar qatoriga kiradi. Suvora ijrochiligida ularning ijro uslubi va interpretatsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kundagi xorazm ijrochilari Og'abek Sobirov, Dilmurod Sultonov, Bayrambek Yoqubov va boshqalar - suvora janrini sahnada va yozuvlarda jonlantirib kelayotgan zamonaviy Xorazm suvorachiligi vakillari desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ular Komiljon Otaniyozov va Otajon Xudoyshekurov an'alarini davom ettirmoqda. "Xorazm suvorasi", "Oshiq yurak", "Katta suvora" yo'llarini o'ziga xos uslubda ijro etib, keyingi avlodga yetkazishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ko'plab ijrochilar suvora repertuarini yozuvga olib, keng ommaga yetkazdi - shu orqali suvora O'zbekistonning madaniy merosiga aylandi.

Xulosa: Xorazm musiqa uslubi O'zbekistonning eng qadimiy va boy musiqiy an'analaridan biri bo'lib, xalq hayoti, mehnati, muhabbati, tabiat go'zalligi hamda tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'langan. Bu san'at tizimi o'z ichiga xalq qo'shiq va laparlari, marosim va o'yin-raqs kuylari, dostonchilik, baxshilik, talqinchi va go'yandalar ijodini, shuningdek, maqom va suvora yo'llarini qamrab olgan. Xorazm musiqasining asosiy xususiyati - jo'shqinlik, ritmik harakat, keng diapazonli ashulachilik va o'ziga xos milliy ohangdorlikdir. Xorazmda shakllangan musiqiy ijrochilik maktablari, xususan, suvorachilik, baxshilik va sozandalik san'ati, o'zining chuqur ildizlari bilan o'zbek milliy madaniyatining bebaho qismini tashkil etadi. "Sozanda qo'shlari" deb atalgan san'atkorlar to'ylarda, sayillarda, xalq bayramlarida o'z chiqishlari orqali xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ularning ijrosida "Lazgi", "Ufori", "Chog'olloq" kabi raqs va o'yin kuylari, "Kaptar", "Ko'knori", "Ot o'yin" singari sahnaviy harakatlar musiqiy ifoda bilan uyg'unlashgan. Shuningdek, Xorazm baxshiligi - o'ziga xos ikki uslubda: Shirvoniy va Eroniy maktablari ko'rinishida shakllangan bo'lib, har birining doston ijrosi, cholg'u tarkibi va ohang tizimi jihatidan farqlanadi. Bu dostonlar xalq og'zaki ijodining yirik namunasi sifatida milliy ruhni, tarixiy voqealarni va ma'naviy qadriyatlarni ifoda etgan.

Xorazm suvorachilik maktabi esa o'zbek mumtoz musiqasining eng nafis yo'nalishlaridan biri bo'lib, tasavvuf g'oyalarini musiqiy shaklda ifodalash bilan ajralib turadi. Xorazm suvorachilik maktabi o'ziga xos ohangdorlik, falsafiy mazmun va chuqur ruhiy-estetik ifodasi bilan milliy musiqamiz tarixida alohida o'rin tutadi. Suvora - tasavvuf oqimining musiqadagi ko'rinishi bo'lib, unda ilohiy muhabbat, inson ruhining poklanishi, Ollohn madh etish kabi g'oyalar yuksak badiiy shaklda ifoda topgan. Suvora janri o'zining tuzilishi, ritmik murakkabligi, ovoz diapazoni va parda tizimi bilan ham boshqa mumtoz janrlardan farq qiladi. Dastlab diniy mazmundagi aytim sifatida shakllangan bu san'at turi vaqt o'tishi bilan mukammal ashula yo'liga aylangan va "Ona Suvora", "Chapandozi Suvora", "Kajhang Suvora", "Xushparda Suvora", "Nim parda Suvora" kabi turlari yuzaga kelgan.

Xorazm suvorachilik maktabi vakillari - Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshekurov, Hojixon Boltayev, Madrahim Sheroziy, Quvondiq Iskandarov, Rahmatjon Qurbonov kabi san'atkorlar bu yo'nalishni yuksak mahorat bilan rivojlantirganlar. Ayniqsa, Rahmatjon Qurbonovning "Nim parda Suvora"sinin yaratilishi suvora san'atining yangi bosqichini boshlab bergan. Ularning ijodi nafaqat Xorazm balki butun O'zbekiston musiqa madaniyatini boyitgan, xalqaro miqyosda mumtoz san'atimizni targ'ib etgan.

Bugungi kunda ham suvora janri yosh avlodni ma'naviy va estetik jihatdan kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu san'at inson qalbini go'zallikka, ezgulikka, yuksak fikrlashga undaydi. Shu bois suvora o'zbek milliy

madaniyatining bebaho durdonasi sifatida har tomonlama o'rganilishi, saqlanishi va kelajak avlodga yetkazilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. O'zbekiston yo'li - milliy g'oya va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 1998.
2. Komiljon Otaniyozov. Xorazm musiqasi tarixi. Xiva, 1985.
3. Abdullaev, Q. Suvoralar va Xorazm maqomlari. Toshkent, 2005.
4. Mirzaboshi, M.R. Xorazm musiqiy an'analari. Toshkent, 1999.
5. Pahlavon Niyoz Muhammad (Kamil Xorazmiy). Tanbur chizig'i va maqomlar. Xiva, 1870.